

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Farg`ona viloyatining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 3 683,1 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 62,9 ming kishiga yoki 1,7 foizga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2082,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,5%), qishloq aholisi soni 1 600,5 ming kishini (43,5 %) tashkil etdi.


### E'tibor bering: 2018 yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **101,7** foizga oshdi.
- Tirik tug'ilganlar soni **81,2 ming** nafarni tashkil etdi.
- **16,9 ming** ta vafot etganlar qayd etildi.
- Shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlarida **32,1 ming** ta nikoh va **2,8 ming** ta ajralishlar ro'yxatga olindi.

## Farg`ona viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 283,8 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,7 % ) va Quva tumanida 252,5 ming kishini (6,9 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 91,7 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 76,1 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Uchko'prik tumanida , Qo'shstepta va Bog'dod tumanlarida 2,0 %, Farg'ona sh. So'x va Toshloq tumanlarida 1,9 %, aksincha eng kam o'sish sur'ati Marg'ilon sh. 1,2 % va Qo'qon sh. 1,3 % ni tashkil etdi.



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)



## Demografik holat



### Ma'lumot uchun:

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 81,2 ming ta bola tug'ilganligi qayd bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega ortgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Oltiariq tumani (19,6 promilledan 22,0 promillega) va O'zbekiston tumani (21,7 promilledan 23,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Farg'ona (16,7 promilledan 16,9 promillega) va Quvasoy (20,4 promilledan 20,6 promillega) shaharlarda kuzatildi.

### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (yanvar-dekabr, kishi)

	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>75501</b>	<b>81187</b>	<b>107,5</b>
Farg'ona sh.	4611	4758	103,2
Qo'qon sh.	4388	4919	112,1
Quvasoy sh.	1823	1870	102,6
Marg'ilon sh.	4545	4786	105,3
Oltiariq	3951	4514	114,3
Qo'shtepa	4115	4436	107,8
Bag'dod	4491	4826	107,5
Buvayda	4662	5125	109,9
Beshariq	4675	4971	106,3
Quva	5183	5432	104,8
Uchko'priq	4830	5300	109,7
Rishton	4265	4515	105,8
So'x	1675	1717	102,5
Toshloq	4395	4602	104,7
O'zbekiston	4922	5476	111,3
Farg'ona	4397	4826	109,7
Dang'ara	3836	4116	107,3
Furqat	2450	2576	105,1
Yozyovon	2287	2422	105,9

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 16,9 ming ta o'lim qayd etilgan bo'lib, barcha shahar, tumanlarda 2017 yilning mos davriga nisbatan pasayish yuz bergen. 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promille ni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi.

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi kamayishi Qo'qon shahri (5,8 promilledan 5,2 promillega), Oltiariq (4,9 promilledan 4,4 promillega), Qo'shtepa (4,7 promilledan 4,2 promillega) va Quva tumanlari (4,8 promilledan 4,3 promillega) hamda kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:** **Ayollar:**  
8,9 ming 8,0 ming  
kishi kishi

### Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (yanvar-dekabr, kishi)


	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	17927	16899	94,3
Farg'ona sh.	1693	1584	93,6
Qo'qon sh.	1408	1290	91,6
Quvasoy sh.	441	422	95,7
Marg'ilon sh.	1200	1133	94,4
Oltiariq	980	896	91,4
Qo'shtepa	853	774	90,7
Bag'dod	943	935	99,2
Buvayda	909	875	96,3
Beshariq	1023	1002	97,9
Quva	1172	1078	92,0
Uchko'prik	958	914	95,4
Rishton	918	880	95,9
So'x	304	282	92,8
Toshloq	943	872	92,5
O'zbekiston	1137	1096	96,4
Farg'ona	1059	1017	96,0
Dang'ara	918	851	92,7
Furqat	625	590	94,4
Yozyovon	443	408	92,1

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,6 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,2 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,7 foizi o'simtalardan, 3,8 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,6 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 10,8 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 484 nafarni tashkil etib, ularning 42,7 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 21,5 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 25,6 foizi tug'ma anomaliyalardan, 2,9 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,3 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 3 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### **Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**

(jami vafot etganlarga nisbatan, foizda)



**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 64,3 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 6,7 ming kishiga (2017 yilning yanvarsentabr oylarida 57,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
64,3 ming kishi

## Demografik holat



**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 35 448 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 foizga ko'paygan bo'lib, faqatgina Rishton (kamayish sur'ati 99,6 foiz) va Toshloq (kamayish sur'ati 99,7 foiz) tumanlarida tashqari barcha shahar, tumanlarda o'sish holatlari yuz berdi.




**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 3 070 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koefitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni bo'yicha 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,8 foizga tushgan bo'lib, faqatgina Rishton (128,9 foiz), va Yozyovon (106,3 foiz) va So'x (106,3 foiz) tumanlarida o'sish holatlari kuzatilgan.


### Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti

(2018 yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan,promille)



### Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti

(2018 yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan,promille)



**Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni**  
(yanvar-dekabr, kishi)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>	<i>2017 y.</i>	<i>2018 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>
Farg'ona viloyati	33922	35448	104,5	3498	3070	87,8
Farg'ona sh.	2197	2294	104,4	471	393	83,4
Qo'qon sh.	2085	2173	104,2	416	334	80,3
Quvasoy sh.	811	877	108,1	125	101	80,8
Marg'ilon sh.	1983	2124	107,1	262	162	61,8
Oltiariq	2069	2249	108,7	162	159	98,1
Qo'shtepa	1785	1850	103,6	120	118	98,3
Bag'dod	1977	2094	105,9	201	180	89,6
Buvayda	1976	2166	109,6	147	144	98,0
Beshariq	2045	2120	103,7	202	181	89,6
Quva	2359	2502	106,1	203	190	93,6
Uchko'priq	2168	2206	101,8	168	117	69,6
Rishton	1948	1940	99,6	142	183	128,9
So'x	581	598	102,9	32	34	106,3
Toshloq	1919	1913	99,7	132	107	81,1
O'zbekiston	2190	2427	110,8	213	207	97,2
Farg'ona t.	1958	1970	100,6	185	158	85,4
Dang'ara	1746	1723	98,7	146	129	88,4
Furqat	1168	1218	104,3	108	106	98,1
Yozyovon	957	1004	104,9	63	67	106,3

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 13 321 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 14 689 kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1 377 kishi bo'lib, 2017 yilning o'tgan shu davrida minus 2 097 kishi bo'lgan.



### Aholi migratsiyasi (yanvar-dekabr, kishi)

	2017 yil	2018 yil
<b>Ko'chib kel-ganlar</b>	13196	13312
<b>Ko'chib ket-ganlar</b>	15293	14689
<b>Migratsiya sal-dosi</b>	-2097	-1377

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni 116 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 604 kishiga kamaygan.

2018 yilning 12 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Farg'ona tumani (minus 540 kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona (2068 kishi) shaharlarda qayd etildi.